

**5-6 YOSH BOLALARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI**

Bobojonova Muyassar Obod qizi – magistrant

tdavlatboyev@mail.ru

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ
В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ**

Бобожонова Муюссар Ободовна – магистрантка

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT
OF CREATIVE THINKING ABILITY OF 5-6 YEAR OLD CHILDREN**

Bobojonova Muyassar Obodovna – Master's student

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: ta'lim, tafakkur, ijodiy tafakkur, maktabgacha yosh, ilk qadam, davlat talablari, rivojlantiruvchi muhit.

Rezyume. Mazkur maqolada 5-6 yosh bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda interfaol metodlarni qo'llashning afzalliklari va xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Ключевые слова: образование, мышление, творческое мышление, дошкольный возраст, первый шаг, государственные требования, развивающая среда.

Резюме. В данной статье рассматриваются преимущества и особенности использования интерактивных методов в развитии творческого мышления у детей 5-6 лет.

Key words: education, thinking, creative thinking, preschool age, first step, state requirements, developmental environment.

Summary. This article discusses the advantages and features of using interactive methods in developing the creative thinking abilities of 5-6 year old children.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etishda bizga zamonaviy bilim va mustaqil fikrlaydigan, kreativ tafakkurga ega bo'lgan yoshlar kerak" [1]. Mazkur fikr bolalikdan boshlab ijodiy va erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimligini yaqqol namoyon etadi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol metodlarni qo'llash orqali bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada interfaol metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy tafakkuriga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tafakkur – insonning fikrlashida va atrof-olamni ongli ravishda anglashida, tahlil qilishida, ayniqsa taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarishida ko'zga tashlanadigan qobiliyati hisoblanadi. Buni oddiy qilib, insonning o'ylashi, fikr yuritishi va yuzaga kelgan har qanday muammo va masalalarga mustaqil yechim topa olishida birlamchi omil sifatida qabul qilishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy "Tafakkur bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayonida, til va muloqot asosida shakllanadigan oliy psixik funksiyadir" [2] – deb izohlab uning asosiy jihatlarini ilgari suradi. Albatta tafakkur orqali inson yuzaga kelgan muammolarga yechim topibgina qo'ymasdan, yangi g'oyalarni amalga oshirishda, ayniqsa mustaqil qaror qabul qilish, egallangan bilim va tajribani hayotda qo'llay olishda ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lib boradi. Buning uchun faqat yangicha fikrlash zarurligini, noodatiy yechim topish kerak degan xotima bilan cheklanib qolmasdan, balki bolani aqliy va ma'naviy jihatdan shaxs sifatida shakllantiruvchi, undagi fikr

doirasining yangicha yo'nalishda takomillashtiruvchi muhim qobiliyat sifatida ham tan olish lozim bo'ladi.

Sababi bola ma'lumotni tafakkurida darhol qabul qilishi mumkin lekin uni tushunish jarayoni, asta-sekin amalga oshadi. Buning uchun albatta atrofidagi katta yoshdagi insonlarning yoki tarbiyachilarning ko'magi, kerak bo'lsa nazorati ham zarur bo'ladi. Chunki 5-6 yashar bolalarning aynan ijodiy tafakkurining rivojlanishi maktabgacha ta'lim yosh davriga to'g'ri keladi ekan. Masalan, bunday narsalar bolaning rasm chizishida, plastilin yoki boshqa predmetlardan qanday da bir narsalarning ko'rinishini shakllantirganda va boshqalarga ko'zga tashlanadi. Demak "Ijodiy tafakkurlar – bu shaxs sifatining individual xususiyatlari bo'lib, u turli ijodiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi" [3].

Insondagi tasavvur, fantaziya, sezgi, xayoliy fikrlash, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik xususiyatlari olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash qobiliyati va ijodkorlikka undovchi omillar sifatida o'rganiladi. Bu esa inson faoliyatining har qanday turida bo'lishi mumkin. Jumladan badiiy, texnik matematik chizmachilik va boshqalar 5-6 yoshdagi bolalarning nafaqat tasavvurini kengaytirish balki, fikrlash va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlab maktabga tayyorgarligini ham kuchaytirish imkoniyati kengaytiriladi.

Natijalar. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari 2020-yil 22-dekabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat Standarti bilan qabul qilingan ushbu hujjatda bolalar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan va ijodiy rivojlanish alohida rivojlanish sohasi bo'lib bir qancha talablar belgilangan. Shuningdek, mazkur talablar asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ham ijodiy faoliyatlar, san'at, musiqa, qo'l mehnati,

o'yinlar va boshqa badiiy hamda ijodiy mashg'ulotlarni bolalarning umumiy rivojlanish jarayoniga kiritishni tavsiya etadi. Bu esa 5-6 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyat va tafakkur rivojiga yordam beradi. Masalan bolalarga ma'naviy, estetik, va kreativ fikrlash kabi qator xususiyatlarining takomillashishiga xizmat qiladi, ayniqsa, ularni maktabga tayyorlash jarayonida kreativ kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur o'yinlar orqali, savol-javoblar orqali, rasm, musiqa, ertaklar orqali, tajriba va kuzatuv orqali rivojlanadi. 5-6 yoshdagi bolalarda o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'yin orqali bolaning ta'lim olishi va rivojlanishining samarali bo'lishi, jarayonning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuv ekanligi, ayniqsa bolalarning qalbida "O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofdagi dunyoni bilishga imkon beradi" [4]. Shuning uchun maktabgacha ta'limda 5-6 yoshdagi bolalarda o'yin, ijod va mustaqil fikrlashini shakllantirish uchun muhim sanaladi. Sababi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiy tafakkurlarini rivojlantirish muhiti yaratilgan. Jarayonni takomillashtirishda esa interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Interfaol ya'ni interaktiv metodlar – bu o'quvchilarning o'zaro muloqot tasiridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul bo'lib, "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan "Interakt", yani "Inter" - o'zaro, "akt" - harakat, tasir, faollik" ma'nosini bildiradi. Ya'ni "Interfaol metodlarda bola tinglovchi emas, ishtirokchi bo'ladi, mustaqil fikr bildiradi, qaror qabul qilishi ijodiy tafakkurning asosiy sharti" [5]. Ushbu metodni maktabgacha ta'limning 5-6 yashar bolalariga qo'llash orqali, bolaning qiziqishini, nutq va fikrlash doirasini, eng asosiysi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish xususiyatlarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Qolaversa aynan bu yoshda bolalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish pedagogik va psixologik jihatdan eng to'g'ri yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan ishlayotgan tarbiyachiga bir qancha pedagogik talablar qo'yiladi. Xalqimizda "Talab bor joyda sifat bor" degan ibora bor. Albatta bolalar faoliyatida interfaol metodlarni qo'llashda tarbiyachi mahorati belgilangan talabning sifatga aylanishiga asos bo'ladi. Jumladan, interfaol metodni qo'llashda nazariy malakasining yetarli bo'lishi, liderlik qobiliyatining ustuvorligi, jamoatchilik bilan ishlashda qonun-qoidalarini puxta egallagan bo'lishi, interfaol metodlar haqida izlanishi, ta'limiy mashg'ulotlar vaqtini to'g'ri taqsimlashi, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi va boshqalar.

Interfaol metodlar 5-6 yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ammo

ularni to'g'ri va samarali joriy etish uchun mavjud to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha tizimli yondashuv zarur. Bu esa nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar, muassasa rahbarlari va butun jamiyatning hamkorligini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat jarayonida tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatishicha tarbiyachi malakasining yetarlicha bo'lmasligi, bola yoshi inobatga olinmasligi, zamonaviy jihozlarning va ko'rgazmali qurollarning yetarli emasligi, barcha bolalarning intellekti bir xil bo'lmaganligi sababli ayrim bolalar o'yin vaqtida chetda qolishi kabi qator muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'layotganligini manbalarda ko'plab uchratish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi interfaol metodlarni qo'llashdagi bu kabi muammolarni bartaraf qilishda "qo'llaniladigan metodlarning bola yoshiga mos kelishi, bolalarni kuzatish va o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar bilan individual ishlashish jarayonlarini tizimlashtirishda tarbiyachilarning vaqtini tejash va ish samarasini oshirish uchun metodik ta'minot bazasini kengaytirish uchun tarbiyachi mahoratini oshirish kurslarini tashkil qilish" [4] maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muhokama. Interfaol metodlarning asosiy xususiyati shundaki, ular 5-6 yosh bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi, ta'lim jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Jumladan. Bu esa maktabgacha ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishga zamin bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi interfaol metodlardan eng samaralarini misol qilib oladigan bolsak bulardan roli o'yinlar "Do'kon", "Shifokor", "Sayohat" kabi bolalar rol ijro qilishi va kasblarga taqlid qilishi kattalar mehnati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek tasavvur, nutq va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda "Aqliy hujum" ya'ni (soddalashtirilgan) tarbiyachi tomonidan beriladigan savollarning ta'sirchanligiga e'tibor qaratiladi. Masalan "Bu buyumdan yana qanday foydalanish mumkin?", "agar yomg'ir yog'sa, kiyimlarimiz ho'l bo'lmasligi uchun nima qilamiz?" v.h.k. Bu esa bolalarda mustaqil yechim topish, ijodiy fikrlash, o'rgangan ma'lumotlarini takrorlab olishi va o'z fikrini bayon qilishi, nutq rivojlanishi kutiladi. Badiiy faoliyat metodida esa rasm chizish, ertak to'qish, qo'l mehnati kabi ishlar olib boriladi. Bu esa bolalarda mayda motorikaning rivojlanishiga, bola dunyoni rang-barang anglashiga xizmat qiladi.

Xulosa. Barchaga ma'lum, uzliksiz ta'limning ilk bo'g'ini maktabgacha ta'lim bolalarni jamiyat bilan bog'laydigan eng muhim maskanlardan biri sanaladi. Mazkur ta'lim tashkilotlarida interfaol metodlarni keng joriy etish, ularni amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda pedagoglarning ushbu yo'nalishdagi kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Bu esa kelajakda mustaqil fikrlaydigan, kreativ va tashabbuskor avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati. 2020-yil, 3-sentyabr.
2. Вьготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Санкт-Петербург: «Союз», 1997.
3. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Faylasuf», 2017.
4. Haydarova N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda zamonaviy va interfaol ta'lim metodlarini qo'llashdagi muammo va yechimlar. // International scientific and practical conference strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experience, April 16-17, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. 2020, 3-b.